ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 1,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

MAMMADOVA SHAKAR,
XAMIDOV MANSUR
Ozarbayjon va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning qiyosiy-tipologik tahlili 7

YAKUBOVA NILUFAR EGAMBERGANOVNA
O‘zak va qolip (vazn) nazariyasi arabiy o‘zlashmalarni
tahlil qilishning asosiy mezoni sifatida 12

SAMANDAROV RUSTAM DO‘SYOROVICH
Tilshunoslik fani taraqqiyotida applikativ modelning murakkab
sintaktik qurilmalar shakllanishidagi o‘rni 17

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Арабская лингвистическая традиция VII–XVII вв.: формирование
интеллектуального стиля и инструментов сохранения языковой нормы 21

ALIMOVA ZARIFAXON VAXOBOVNA
MAMAROZIQOVA SUG‘DIYONA SHUXRATJON QIZI
Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostonida forsiy o‘rin-joy yasovchi affikslarining qo‘llanilishi 25

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA,
YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA
Mahmud Koshg‘ariyning «Devony lug‘oti-t-turk» asarida keltirilgan
maqollardagi so‘zlarning semantik-stilistik xususiyatlari 29

SADULLAYEVA MATLYUBA AXROROVNA
Ahmad Yassaviy ijodining ramziy tili va undagi raqamli tasavvuf 33

SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O‘G‘LI
Arab tilida enantiosemiya hodisasi: semantik tabiati va ilmiy talqinlar tahlili 36

PANJIEVA NASIBA NARMAXMATOVNA
SAIBNAZAROVA NAZOKAT
English proverbs with number components 39

ЛАТИПОВ АЗИЗ АКБАРАЛИЕВИЧ
Сопоставительная характеристика категории
фазовости в английском и узбекском языкознании 42

AMONOV MUXTORJON UMAROVICH
«Boburnoma» asaridagi arabcha o‘zlashmalarda antonimlik 45

ОРИФЗОДА МАДИНА КАМИЛОВНА,
ОРИФЗОДА БОНУ КАМИЛОВНА
Системное изучение словообразовательной омонимии
в ретроспективном и перспективном аспектах 48

SABIROV ASROR ABDULLAYEVICH
Nemis–o‘zbek siyosiy terminlarining semantik va stilistik xususiyatlari 52

IBRAXIMOVA IRODA BOBIR QIZI
O‘zbekistonda til siyosati va ingliz tilining rivoji 56

TURSUNOVA MARXABO RAXMONOVNA
Jojo Moyesning «To seni topgunimcha» romanida kognitiv dissonans fenomenining
psixologik va lingvistik talqini hamda uning tarjimashunoslikdagi ifodasi 60

ARZIMURODOVA E’ZOZA BERDIMUROD QIZI
Zamonaviy mobil aloqa terminlarida transliteratsiya strategiyalari: ingliz va o‘zbek tillari qiyosida 64

BOZOROVA SEVARA KAMOL QIZI
Savdo konsepti doirasida sinonimiya (o‘zbek va ingliz tillari misolida) 68

КАРИМОВА ГУЗАЛ ИХТИЯРОВНА
Лингвокультурологический аспект концепта и его изучение в разных языках 71

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
O‘tkir Rahmat she’riyatida sinonim so‘zlarning qo‘llanishi haqida ayrim mulohazalar 76

МУНДАРИЖА

MUSTAFOEVA MAKSAD ASKAROVNA
The structural and linguistic analysis of anthroponyms in «Beowuf» and «Alpomish» folk epics 79

NOSIROVA DILNOZA RIZOKULOVNA
Semantic and pragmatic features of john green's novels in contemporary young adult literature 82

RAXIMOVA ZARINA UKTAMOVNA
O'smirlar psixologiyasining lingvopoetik ifodasi va tarjimada ichki monolog hamda emotsional tasvir 87

RAXMATOVA GULNOZA ISOXONOVNA
O'zbek tilidagi so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalarining ingliz tilidagisi bilan qiyosi 90

BERDIYEVA SITORA UTKEROVNA
G'afur G'ulomning «Shum bola» asarida yumorning badiiy funksiyalarining lingvistik jihatlari 93

SHAMSITDINOVA MOXINABONU AKBAR QIZI
Yapon tilida omonimlardan foydalanishda nutqiy strategiyalar 98

ADABIYOTSHUNOSLIK

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Телба образининг бадиий талқини
(Эркин Аъзамнинг «Сув ёқалаб» ва «Танҳо қайиқ» киноқиссалари мисолида) 100

ASQAROVA ZULAYXO YANGIBOYEVNA
Muhammad Rizo Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asaridagi ta'rixlarning badiiy-estetik qimmati 104

MAMADJONOVA SEVARA MAXAMADJON QIZI
Adabiyotshunoslikda dualizm tushunchasining nazariy va
metodologik asoslari (Agata Kristi poetikasi misolida) 109

RAHIMOVA SARVINOZ TOLIBOVNA
Usmon Azimning «Devorlari yiqilgan bog'» hamda «Yana sevgi haqida she'rlar»
asarlaridagi simulyakra va boshqa postmodern xususiyatlar ifodasi 112

СААКЯН РОЗА ЮРЬЕВНА
Поэтика полемического жанра в памфлетной публицистике
Даниэля Дефо и Жжонатана Свифта 115

SHAMSIYEVA SHOXISTAXON QUDRATULLAYEVNA
Gender rollarni aks ettiruvchi stereotiplar 119

НАСРИДИНОВА СИТОРА УТКИРОВНА
Мотив отсутствия и присутствия как средство создания
напряжения в рассказе Джека Ритчи «Отсутствие эмили» 125

BAFOYEVA ROXILA VALIJON QIZI
Amerika hamda o'zbek postmodern adabiyoti xususiyatlari 128

KHAKIMOVA NARGIZA KHAYRILLOYEVNA
Mythological origins of the epics "Arthuriana" and "Alpamysh" 131

TA'LIM

TILOVOVA GO'ZAL RUSTAMOVNA
Ta'lim jarayonida o'quv izohli lug'atlardan foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyati 135

YULDASHEVA DILAFRUZ
The role of teacher instruction in efl classrooms: a discourse-oriented analysis
of their importance in teaching young learners 138

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

GENDER ROLLARNI AKS ETTIRUVCHI STEREOTIPLAR

Shamsiyeva Shoxistaxon Qudratullayevna,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Klassik madaniyat va falsafada ayol erkakka nisbatan qarama-qarshi qo'yilgan: ayol – genofondni saqlash, hayotni qayta yaratish, naslni davom ettirishdek tabiatdagi eng qimmatli xususiyatga ega. U an'anaviy qadriyatlarni qayta yaratib, hamjamiyat hayotini saqlash vazifasini bajaradi. Shunga qaramay, ayol jamiyatda irratsionallik (Aristotel), axloqsizlik (Shopengauer), hissiyotlilik (Kant), bir qator qusurlar (Freyd) va h.k.ni assotsiatsiyalab kelgan[1].

Qadimgi Xitoy falsafasining asosiy kosmologik tamoyiliga ko'ra, butun olamdagi barcha jarayon va hodisalar ikki qarama-qarshi: «in» bilan «yan» qutblariga ajratilib talqin qilingan. Ular quyidagi qarama-qarshiliklardan iborat:

1) «in» qutbi: ayollik tamoyili, yer, qorong'ulik, sovuqlik, namlik, qabul qiluvchi, ichki kuch;

2) «yan» qutbi: erkaklik tamoyili esa osmon, yorug'lik, issiqlik, quruqlik, beruvchi, tashqi kuch.

Ayol va erkak o'rtasidagi tafovut insoniyat paydo bo'lganidan boshlangan bo'lib, bu tafovut dastlab ularning bajaradigan yumushlarida ko'zga tashlanadi. Keyinchalik kishilik jamiyatining taraqqiy etishi natijasida ayol va erkakning xulq-atvorida, kiyinishida, yurish-turishida, shuningdek, so'zlashida ham farqli jihatlar ajrala borgan.

Har bir madaniyatda erkaklik va ayollik haqida o'ziga xos tasavvurlar mavjud. Ushbu stereotipik tasavvurlarning tuzilishi va mazmuni nafaqat etno-madaniy o'ziga xoslikka, balki madaniy an'analar, tegishli jamiyatning tarixiy rivojlanish bosqichlari, uning urbanizatsiya darajasi, dini va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

N.V.Belaya erkaklar va ayollarga nisbatan binar oppozitsiyadagi stereotipik qarashlarni yettita guruhga ajratadi: «Binar oppozitsiyaning birinchi guruhi – mantiqiylik-intuitivlik, mavhumlik-aniqlikdir. Bu o'inda erkaklik mantiqiylik, ayollik esa intuitivlik bilan bog'liq. Gender stereotiplar oppozitsiyasining ikkinchi guruhiga instrumentallik-ekspressivlik, onglilik-ongsizlik kiradi. Binobarin, ayollarning ta'sirchanligi, hissiyotlarga beruluvchanligi va hamdardligi ularni muayyan maqsad hamda malakaga yo'naltirilgan instrumental tabiatli erkaklardan ajratib turadi, degan umumiy stereotip mavjud. Bunday fazilatlar ayollarni ko'proq moslashuvchan, ko'nikuvchan, erkaklarni esa qat'iyatli va hukmron deb hisoblashga olib keladi.

Gender stereotiplari oppozitsiyasining uchinchi guruhini quyidagicha taqdim qilish mumkin: hukmronlik va bo'ysunish. Ayollarga, odatda, sadoqat, muloyimlik, moslashuvchanlik, fidoyilik, sabr-toqat, bo'ysunish hamda uyga mehr qo'yish kabi fazilatlar xos deb hisoblanadi. Aksincha, erkaklarga buning qarama-qarshisi bo'lgan jihatlar xos deb qabul qilinadi. Shu bois erkaklik va ayollik hukmronlik va bo'ysunish tamoyillari nuqtayi nazaridan tushuniladi.

Tartib va betartiblik qarama-qarshiligi ham gender stereotiplar guruhini namoyon qiladi. Bu biz tasvirlayotgan to'rtinchi oppozitsiya guruhidir. Bundan tashqari, shakl va materiyaning gender differentsiatsiyaga falsafiy qarashi ham tartib va betartiblik qarama-qarshiligi bilan ifodalanadi.

Beshinchi guruh mustaqillik, individuallik – yaqinlik va jamoaviylik kabi gender stereotiplarini o'z ichiga oladi. Bu o'rinda ayollar obyektlarga yoki muayyan muammolarni hal qilishga emas, balki yaqin insonlarining farovonligiga ahamiyat berishlari muhim gender stereotip sifatida ko'rsatiladi.

Gender stereotiplaridagi oppozitsiyaning oltinchi guruhi impulsivlik, faollik – turg'unlik, passivlikdir. Stereotipik qarashda kuch, faollik, harakatchanlik, mobillik, aniqlik, mantiqiylik, harakat va hayot erkaklik tamoyilida kelib chiqadi, ayollik tamoyili esa passivlik sifatida tushuniladi.

Gender stereotiplarining yettinchi guruhi quyidagi qarama-qarshilik bilan ifodalanishi mumkin: beqarorlik, xiyonat, radikalizm – doimiylik, sadoqat, konservatizm. Shuningdek, ayollar konservativ, barcha qadrdonlariga sadoqatli bo'lishi bilan, erkaklar esa radikalizm va beqarorligi bilan ajralib turadi degan madaniy stereotip mavjud»[2] .

[1] Usmanova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – B. 213-214.

[2] Белая Н.В. Гендер как фактор социальных отношений в английской, американской и русской лингвокультурах: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2009. – С. 62-63.

Bu o‘rinda tabiiy savol tug‘iladi: Mantiqiy mushohadali, aqlli, faol, jasur, kuchli, tajavuzkor ayollar uchramaydimi? Yoki, aksincha, noshud, passiv, hissiyotli, ta’sirchan yoki uyatchan erkaklar uchramaydimi?

Fikrimizni mustahkamlash uchun Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanidan keltirilgan ayrim misollarga murojaat qilamiz:

– Yaqinda mirzoliqni tashlamoqchiman, Ra‘no?

– Mirzoliqni tashlagandan so‘ng nima ish qilasiz?

– Qo‘qondan ketaman, sayohat qilaman.

– Meni... meni ham o‘zingiz bilan olib ketmaysizmi?

Anvar yana tushunmadi. Ra‘noning yuziga ancha qarab turdi:

– Sen... senga mumkinmi, Ra‘no?

– Mumkin, – deb qaltirandi Ra‘no. – Mirzoboshiliqni hozirdan e‘tiboran tashlasangiz mumkin...

Bu so‘z Anvarni ham qaltiratib yubordi.

– Nima deyapsan, Ra‘no?

Ra‘no bir necha vaqt javob beralmay turdi. O‘zini to‘xtatib olish, hayajonini tindirish og‘ir edi.

– Haligi... haligi so‘zingiz chin bo‘lsa, men ham siz bilan ketishni xohlayman... Basharti sizga og‘ir oshmasam...

Anvar jim bo‘lib qoldi, tushiga ham kirmagan bu taklifka nima deyishini bilmay entikdi...

– Basharti sizga og‘ir oshmasam, – dedi takror Ra‘no.

«Jasur qiz» deb o‘yladi Anvar. Chindan ham bu jasurona isyon xotin-qizlar tomonidan Xudoyorning hayvoniy istagiga qarshi birinchi ko‘tarilish edi. Anvar istiqbolda qanchaliq mushkilot va xatar ko‘rmasin,bu jasoratni xush qabul qilishg‘a majbur, chunki muhabbatdan ham ilgari yigitlik taqozosi shu edi[1] .

Keltirilgan kontekst orqali asar qahramoni Ra’noning hatto erkaklar ham jazm qilolmaydigan mislsiz jasoratini ko‘rish mumkin. Zero, Abdulla Qodiriyning o‘zi ham asarning «Xayr endi, Ra’no» bo‘limida ayollarning kerak bo‘lsa erkaklardan ham jasurroq shaxs bo‘lishi mumkinligi haqida quyidagilarni yozadi: «Xotin-qizlar jinsidan irodasi kuchlik, hatto erlardan ham jasurroq shaxslarni ko‘b uchratamiz. Shuning bilan birga, ularni naqadar kuchlik irodaga molik bo‘lmasinlar, yana hissiyotlariga mag‘lub ko‘ramiz. Masalan: hikoyamiz qahramoni Ra’noning jasorati, xong‘a qarshi isyoni, hatto ma’yus qolg‘an Anvarni yo‘lg‘a solishi – o‘z zamonasi uchungina emas, bizning hozirgi asrimiz uchun ham loyiqi tahsin va Ra’no yoshliq qizlarimizg‘a ibratdir»[2] .

Yoki, aksincha, asar qahramoni Anvarda ayollarga xos bo‘lgan uyatchanlik xususiyatining mavjudligini ko‘rishimiz mumkin:

– Yosh, uyatchan yigitka o‘xshadi. Yigirma chog‘liq qizning o‘ziga tikilganidan uyalib, yerga qaradi...[3] .

Demak, jamiyatda erkaklarga xos deb hisoblangan fazilatlar ba’zan ayollarda ham ko‘plab uchraydi va aksincha bo‘lishi mumkin. Bundan «erkaklik-ayollik» tushunchalari aslida nisbiy bo‘lib, ularning mohiyatida insonga xos umumiy xususiyatlar yotadi, degan xulosaga kelish mumkin. Mazkur qarashimizni N.V.Belayaning quyidagi xulosasi bilan kuchaytirish ayni muddao bo‘ladi: ««erkaklik-ayollik» tushunchalarining ijtimoiy mohiyati erkak va ayol shaxsi, ularning o‘ziga xos xatti-harakatlari va xulq-atvor shakllarini kuzatishdan kelib chiqadi. Bu kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, na biologik, na psixologik ma’noda «sof» erkaklik yoki «sof» ayollik mavjud emas»[4].

Har bir jamiyat va madaniyatda erkak va ayollarning jinsiga ko‘ra turli xil rollari mavjud bo‘ladi. «Erkak bo‘lish» ma’lum bir ijtimoiy rolni, «ayol bo‘lish» boshqa bir ijtimoiy rolni o‘ynashni anglatadi. Jins xususiyatiga ko‘ra belgilanadigan mazkur ijtimoiy rollar erkaklar va ayollar ma’lum bir jamiyat va madaniyat me’yorlariga muvofiq qanday harakat qilishlarini belgilaydigan qoidalardir. Bundan tashqari, har bir madaniyat ma’lum bir jinsga mos keladigan u yoki bu xarakterli xususiyatlarni belgilaydi[5].

Gender rollar, odatda, ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tabiiy farqlarni keltirib o‘tish orqali tushuntiriladi. Jinslar o‘rtasidagi farqlar munozarali masala bo‘lib, bu xususda qarama-qarshi qarashlar mavjud. Birinchisi, biologik determinizm tarafdorlari bo‘lib, ularning taxminicha, biologik jins va gender o‘rtasida chambarchas bog‘liqlik mavjud[6]. Xususan, gender kod mavjud bo‘lib, u madaniyat va erkak-ayol jinsi vakillarining o‘ziga xos farqli diskursiga asoslangan

[1] Қодирий А. Меҳробдан чаён (Худоёрхон ва муншийлари ҳаётидан тарихий рўмон). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, I994. – Б. 123.

[2] Қодирий А. Меҳробдан чаён (Худоёрхон ва муншийлари ҳаётидан тарихий рўмон). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, I994. – Б. 140.

[3] Қодирий А. Меҳробдан чаён (Худоёрхон ва муншийлари ҳаётидан тарихий рўмон). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, I994. – Б. 74.

[4] Белая Н.В. Гендер как фактор социальных отношений в английской, американской и русской лингвокультурах: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2009. – С. 63.

[5] Белая Н.В. Гендер как фактор социальных отношений в английской, американской и русской лингвокультурах: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2009. – С. 63.

[6] Есенова Т.С., Есенова Г.Б., Горяева В.В., Харчевникова Р.П. Андроцентризм гендерных стереотипов (на примере паремии) // Вестник Калмыцкого университета. 2017. № 34 (2). – С. 86.

muayyan xulq-atvor namunasini aks ettiradi[1]. Ijtimoiy konstruktivizm tarafdorlari gender farqlari jamiyat tomonidan yaratiladi, deb hisoblashadi.

E. P. Ilyin gender stereotiplarni jinsiy stereotiplardan, ya'ni tabiiy xususiyatlar: a) antropometrik xususiyatlar (ayollarning erkaklarga nisbatan qisqa bo'yli, vazn jihatdan yengilroq, yelkalarining kichik, tos suyagining keng bo'lishi va h.k.) hamda b) stereotipik psixofiziologik xususiyatlar (erkaklarning tajovuzkorligi, hukmronlik qilishga moyilligi, o'ziga ishonchi, mustaqilligi, jasorati, qo'polligi, ayollarning esa qaramligi, tortinchoqligi, xayolparastligi, empatiyasi, xavotiri, ta'sirchanligi va boshqalar) bilan bog'liq bo'lgan farqlardan ajratishni taklif qiladi. E. P. Ilyinning qayd etishicha, «jinsiy stereotiplardan farqli o'laroq, gender stereotiplari jamiyat tomonidan hayotning turli sohalarida erkaklar va ayollarga yuklanadigan turli rollar bilan bog'liq. Bu stereotiplar oilaviy rollarning taqsimlanishi bilan bog'liq: ayollar shaxsiy sohaga, ona va uy bekasi roliga tushiriladi. Erkaklarga oilani moliyaviy jihatdan ta'minlash, jamoat hayotida ishtirok etish va professional muvaffaqiyatga erishish vazifasi yuklatilgan. Kasbiy sohada ayollar, asosan, rahbarlik va xizmat ko'rsatish faoliyati (ta'lim, sog'liqni saqlash, savdo, ijtimoiy xizmatlar) bilan, erkaklar esa instrumental faoliyat (texnik, ijodiy va boshqaruv ishlari, shuningdek, og'ir jismoniy mehnat) bilan assotsiatsiyalanadi»[2].

O'zbek jamiyatida erkak va ayol vazifalarining taqsimlanishi aksariyat hollarda ayollarning tobeligi va erkaklarning hukmronligi ziddiyati bilan baholanib, bu o'zbekcha turmush tarzi me'yori sifatida taqdim etiladi. An'anaviy o'zbek jamiyatida haliyam ayollarga nisbatan hamon past nazar bilan qarash, ularni bosim ostida ushlashga intilish kuchli. «Jamiyatda erkaklarning huquqi ko'proq, ular oila va jamiyatda ham bosh rolni egallagan, ayollar ularga nisbatan kichikroq va past mansablarni egallashgan hamda erkaklarga moddiy jihatdan qaram» degan fikrlarni tez-tez uchratish mumkin.

O'zbek stereotipik an'analariga ko'ra, jamiyatining siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, harbiy va hokazo sohalarida erkaklar faoliyat olib borishi, ayollar esa ko'proq tikuvchi, hamshira, o'qituvchi va hokazo bo'lishi mumkinligi uqtirib kelinadi. Boshqacha aytganda, ayollarga uy bekasi, ona va oila qo'rg'onining qo'riqchisi bo'lish, erkaklarga esa boquvchi va himoyachi vazifasi yuklanib, rahbarlik va boshqaruv ham aynan erkaklar tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbek ayoli mehribon ona, sadoqatli, vafodor yor sifatida tasavvur qilinadi:

Mayramgul o'rta bo'y, kulcha yuzli, lekin nigohlari ma'yusgina ayol. Bunday ayolga bir bor qaragan kishi ham: «Haqiqiy ona, vafodor xotin», deb o'ylashi mumkin[3].

Ayolning o'rni birinchi galda uyda, oshxonada, farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishda, xotin ishlasa ham uy yumushlarini bajarib, bolalarini eplab qo'yishi lozim, deb tushuniladi.

O'zbek erkaklarining an'anaviy streotipik qarashlariga ko'ra, ayol kishi go'zal, indamas, ro'zg'orbop, fidokor, tobe, itoatgo'y, muloyim va har doim «xo'p» deb turishi lozim:

O'ktam ayolining yelkasini siladi va hayrat bilan bir narsani kashf etdi: xotini hamma vaqt mana shunaqa, mute![4]

O'zbek erkaklari ko'p hollarda ayollarining o'zlaridan aqlli bo'lishini xohlashmaydi. Shuning uchu ham aqlli qizlarga uylanish tavsiya qilinmaydi:

– Marhamat, uka! O'tir. Men senga bir maslahat beraymi?

– Xo'sh?

– Hali uylanganing yo'q, a?

– Yana o'sha gapmi?

– Yo'q, yo'q. Men sendan kattaman, besh-to'rt ko'ylakni avvalroq yirtganman. Uylanmagan bo'lsang, senga nasihatim shulki, sirayam o'zingdan aqlli qizga uylanma[5].

Bunday qarashni «Xotinning zo'ri – erning sho'ri»; «Oltin boshli xotindan chelak boshli er yaxshi» kabi xalq maqollarida ham ko'rish mumkin. Ayol kishining zukko va topqirligi erkaklarning g'ashini keltiradi:

Xotinining topqirligi, davrani og'ziga qaratgani Sodiqqa yoqqan esa-da, g'ashi keldi: o'zining oldida xotini juda ko'tarilib ketdi-da[6].

«O'qigan qizlar ro'zg'orbop bo'lmaydi, o'zini tobe hisoblamaydi, har qanday vaziyatga «xo'p» deb, ko'nib ketavermaydi» kabi stereotipik qarash oqibatida ko'pincha o'qigan qizlarga uylanish tavsiya qilinmagan holatlarga ham duch kelinadi. Masalan:

GAlning boshlig'i bo'lgan chogingdayam institutni bitirgan qizga uylanma... Jon-jon deb tegadigallari ham bo'ladi. Hozir o'qigan ko'p qizlarning holi xarob.

---

[1] Плотникова С.Н., Копылова Н.В. Гендерный код жанра: мужские тактики уничтожения лица женщины в беседе // Жанры речи. 2009. № 6. – С. 409.

[2] Ильин Е. П. Пол и гендер. – СПб.: Питер, 2010. – С. 77-78.

[3] Холмирзаев Ш. Сўнгги бекат. – Тошкент: Ёш гвардия, 1976. – Б. 74.

[4] Холмирзаев Ш. Сўнгги бекат. – Тошкент: Ёш гвардия, 1976. – Б. 97.

[5] Холмирзаев Ш. Сўнгги бекат. – Тошкент: Ёш гвардия, 1976. – Б. 212.

[6] Холмирзаев Ш. Сўнгги бекат. – Тошкент: Ёш гвардия, 1976. – Б. 81.

Xo‘p deyaver! – Men bilaman-da. … O‘qigan qizdan qoch[1].

Aytilganlar bilan birga, «aksariyat o‘zbek oilalarida ayollar erining ijozatisiz o‘qimaydi, ishlamaydi. Hattoki, farzandlar onadan biror narsa so‘raganida, «otang nima desa shu» degan javobni eshitadi. Buning oqibatida farzandlarda «otam onamdan ustun» yoki «otamning fikri onamnikidan muhim» degan tushuncha paydo bo‘ladi. Natijada, ularning ongiga singgan gender stereotiplar hayotda o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi»[2].

Muammoli vaziyatlar yuzaga kelganda, «Har narsaga avvalo ayol kishi aybdor, qars ikki qo‘ldan chiqadi», «Erkak nima ish qilsa ham haq» degan xulosaga kelinadi. Mojaro vaziyati yuzaga kelganda er onasining tomonida turadi. Bunday vaziyat ko‘pincha ota-onalarining tashabbusi bilan turmush qurgan oilalarda uchraydi hamda ularning oila barpo qilishda hamma javobgarlikni olishga tayyor emaslikdan kelib chiqadi. Bu ayniqsa, voyaga yetmagan qizlar turmushga chiqayotgan erta nikohlarga tegishlidir[3].

Patriarxal tizimga asoslangan o‘zbek jamiyatida ba’zan balog‘at yoshiga yetmagan qizlarni ham zo‘rlab turmushga uzatish holatlari uchrab turadi. Quyidagi misolga e’tibor qaratamiz:

Akbarali o‘n besh yoshga hali to‘lib-to‘lmagan o‘z qizini sudrab kelardi. Qiz nima gapligidan xabarsiz atrofga javdirar, biron gunoh qildimmikin, ammamning qochishiga meni qarashgan deb o‘ylashdimikin, degan fikrda bo‘lsa kerak, hadeb dadasiga yolvorib, men emas, men emas, deb chirqillab javrab kelardi. Akbarali uni qo‘lidan siltab kuyov oldiga itarib yubordi.

– O‘qing, o‘qing nikohni, domla!

Odamlar barobar oh urib yuborishdi. Bir keksa hassasini do‘qillatib ular oldiga bordi.

– Esingni yig‘, ahmoq! Bu nima qilganing!

Akbarali siz aralashmang, degan nazar bilan undan yuz o‘girdi.

Kuyov o‘ttiz beshlarga borib qolgan, ko‘k ko‘z kishi edi. Uning oldida qiz sher qafasiga tashlangan quyondek qaltirardi. Nav-niholdek gavdasi dadasiga qarab iltijo bilan egilgan, ko‘zlari atrofga madad so‘rab boqardi[4].

Ba‘zida oiladagi mojaro vaziyati vazifalarni taqsimlash asosida yuzaga kelishi mumkin, farzandlarni tarbiyalash odat bo‘yicha ayollarning vazifasidir, erlar farzandlarni parvarish qilish, o‘qishini nazorat qilish jarayonida va ular hayotidagi boshqa voqealarda ishtirok etmaydilar. Shu sababli ma‘lum bosqichda oilada farzandlar va otalar bir-biridan uzoqlashib ketadilar[5].

Aytilganlar bilan birga, «o‘zbek oilalarida eng ko‘p mojaro vaziyatlari «kelin-qaynona» munosabatlari asosida kelib chiqadi. Bu yerda gap axloq-odob jihatlarida emas, balki ayolni (kelinni) jismoniy va ruhiy ezishda boradi. Kelinning har bir harakatini qat‘i nazorat qilish, shaxsiy hayotiga, hatto er-xotin hayotining nozik sohalarigacha qo‘pollik bilan aralashish shular jumlasiga kiradi». Kelinlarga bo‘lgan bunday munosabatni «Kelin – qaynona supurgisi» maqolida ham o‘z aksini topganligini ko‘rish mumkin.

«Moliyaviy nazorat qaynonaning kelinga nisbatan xatti-harakatlarining an‘anaviy ko‘rsatkichidir. Qaynonaning kundalik ezishi va er tomonidan tushunmaslik ayolni tanglik holatiga olib keladi, u juda og‘ir yukni ko‘tara olmaydi va bu holatda mojaro yuzaga keladi yoki chidashni davom ettiradi. Chuqurlashib ketgan mojaro tuzatib bo‘lmaydigan oqibatlarga olib keladi: o‘zini-o‘zi o‘ldirishga urinishlar, suiqasd, ruhiy kasalliklar shunday turmush tarzining natijasidir»[6].

O‘zbek oilasida «yaxshi xotin» stereotipik tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbek ayoli o‘z oilasi oldidagi qator vazifalarini bajargandagina yaxshi xotin, yaxshi kelin hisoblanadi. Yaxshi xotinning muhimligini «Yaxshi xotin – yarim rizq», «Yaxshi xotin – xazina» maqollarida ham ko‘rishmiz mumkin.

O‘zbek ayolining hayotida turmushga chiqish eng asosiy voqeadir. Otasining uyidagi o‘tgan hayoti uning kelin (qaynonasi uchun), xotin (eri uchun) va ona (farzandlari uchun) bo‘lishiga tayyorgarlikdir. Binobarin, o‘zbek an’naviy jamiyatida «qiz bola uyning mehmoni» degan tasavvur mavjud. Bir kun kelib qiz bola turmushga chiqib, ota-ona uyini tark etadi va boshqa joyda qo‘nim topib, uyli-joyli bo‘lib ketadi. Xalq maqollarida ham mana shu qarash o‘z ifodasini topgan: «Qiz – qo‘noq», «Qiz bola – birovning xasmi», «Uy qizi – palaxmon toshi, Otildimi, qaytib kelmas», «Chiqqan qiz chiydan tashqari», «O‘g‘il yeb o‘rga ketar, qiz yeb qirga ketar».

O‘zbek streoptipik qarashlariga ko‘ra, turmushga chiqmaslik baxtiqoralik, «katta fojea» hisoblanadi. «Masalan, tilimizda betiqora so‘zi mavjud. Ushbu so‘z belgini nomlab, asosan, salbiy ma‘noni ifodalaydi. O‘g‘irlik, fohishalik, yolg‘on gapirish kabi noma‘qul ishlar bilan shug‘ullangan insonlarga nisbatan ishlatiladi. Surxondaryoning ayrim shevalarida esa ushbu so‘z «turmushga chiqmagan, o‘tirib qol-

[1] Холмирзаев Ш. Сўнгги бекат. – Тошкент: Ёш гвардия, 1976. – Б. 213.
[2] https://nargis.uz/?p=3693
[3] Ўразалиева Г. Гендер ва аёллар ҳуқуқий маданияти. – Тошкент, 2009. – Б. 85.
[4] Аҳмад С. Уфқ. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – Б.28.
[5] Ўразалиева Г. Гендер ва аёллар ҳуқуқий маданияти. – Тошкент, 2009. – Б. 85.
[6] Ўразалиева Г. Гендер ва аёллар ҳуқуқий маданияти. – Тошкент, 2009. – Б. 85.

gan qiz» ma‘nosida ishlatiladi». F. Musayevaning qayd etishicha, «bu ifoda dastlab «beti qora qiz» shaklida bo‘lgan. Keyinchalik qiz so‘ziniing ellipsisga uchrashi natijasida «beti qora»ning o‘zi obyektni ifodalay boshlangan. Albatta, bu yangi ma‘no ushbu ifodaning semantikasidan kelib chiqadi, chunki turmushga chiqmaslik, oila qurmaslik ham xalqimiz orasida, ayniqsa, qishloq sharoitida salbiy voqelik sifatida baholangan»[1].

Umuman, o‘zbek jamiyatida turmushga chiqmagan qiz katta muammo tug‘dirgan. Buni quyidagi maqollarda ham ko‘rish mumkin: «Qari qiz ovga chiqar, ortidan g‘avg‘o chiqar», «Qari qiz qozi bo‘lar, sari itga rozi bo‘lar».

Taqdir taqozosi bilan ayol kishining ersiz qolishi yoki erga chiqmasligi ijtimoiy muhitdagi ehtimoliy salbiy holatlar hamda himoyasizlik vaziyati yuzaga kelishi sabab negativ baholanadi, shu boisdan tilda quyidagi madaniy tuzilma o‘z ifodasini topgan: turmushga chiqish – himoyaga ega bo‘lishdir: Erli uy – eshikli uy; Beva xotinga Buxorodan it hurar; ersiz xotin – boshvoqsiz ot; Tul xotinning boshiga turna tezaklar kabilar[2].

Ayolning oiladagi roli ikkinchi darajali. Uyida erini chidamlilik bilan kutib o‘tirgan ayol eng yaxshi hisoblanadi. Yoshlarni tanishtirish bo‘yicha yoshlar tomonidan ko‘rsatilgan tashabbus xush kelmaydi, ayniqsa, qizlar tomonidan ko‘rsatilgan tashabbus qoralanadi. Agar qiz oilada o‘zi tanlagani borligi va unga turmushga chiqmoqchi ekanligini e‘lon qilsa, oilada bu rad etiladi. Odat bo‘yicha tanishish sovchilar orqali amalga oshirilgani ma‘qul hisoblanadi. Ota-onalarning roziligidan so‘ng yoshlar birinchi uchrashuvga chiqadilar, undan keyin esa ular ota-onalarining tanlovini tasdiqlashlari yoki rad etishlari lozim. Ko‘pchilik hollarda ota-onaning tanlovi hal qiluvchi bo‘ladi[3].

O‘zbek qizlari turmushga ciqqanlarida, ular aksariyat hollarda qaynona va qaynotasi bilan birga turadilar. Kelin barvaqt, eridan va qaynona-qaynotasidan oldin turib, hovli, yo‘lak va ko‘cha darvozani supurib, suv sepadi. Yilning qaysi fasli bo‘lishidan qat’i nazar bu vazifani bajarish kerak bo‘ladi. Keyin nonushta tayyorlaydi. Erining kiyimlarini tayyorlab, tuflilarini artib, uni ishga kuzatadi.

Agar kelin ishlasa, oyligining hammasini qaynonasiga (ular bir uyda yashasa) berishi kerak bo‘ladi. Oyligini bermagan taqdirda, qaynona-kelin o‘rtasiga sovuqchilik tushadi.

Odatga ko‘ra, an‘anaviy oilada ayol qat‘i ravishda oilaviy iyerarxiyaga bo‘ysunishi kerak. Erning boshchiligiga e‘tiroz bildirib bo‘lmaydi, agar yosh oila ota-onasi bilan yashayotgan bo‘lsa, qaynonaning boshchiligiga ham e‘tiroz bildirib bo‘lmaydi. Er va qarindoshlari xohishiga ko‘ra, ta‘lim va mutaxassisligini tashlab qo‘yib uyda qolgan har bir ayol moliyaviy bosimni o‘zida his qiladi. Hamma narsada eriga qaram bo‘lib qolib, natijada o‘zini mustaqil mablag‘lar olish huquqidan mahrum qiladi. U o‘z xohishicha va keraklicha ishlatishi mumkin bo‘lgan mablag‘ va boshqa boyliklarga ega emas. O‘zining elementar ehtiyojlarini qondirish uchun u ruxsat so‘rashi kerak[4].

O‘zbek ayolining kundalik turmushda qator majburiyatlari bor. Binobarin, yaxshi xotin erining hurmatini joyiga qo‘yishi kerak. Bu majburiyatni o‘zbek maqollarida ham o‘z aksini topganini ko‘rish mumkin: «Erga boqqan yerga boqar», «Er – yarim pir».

Yaxshi ayol turmush o‘rtog‘iga nisbatan o‘ziga xos muomala usullarini qo‘llaydi. Xususan, eriga hurmat ma’nosida «Siz» deb murojaat qiladi. Erining ismini aytib chaqirmaydi, ismini aytib chaqirish hurmatsizlik hisoblanadi. Ko‘pincha «xo‘jayin», «bolalarning otasi» ma’nosida «dadasi», ba’zan katta farzandining ismini aytib murojaat qiladi.

Aytilganlar bilan birga, «o‘zbek ayollari andisha nuqtayi nazaridan erlarini o‘rtoq so‘zi orqali ifoda etadilar. Demak, o‘rtoq so‘zi «er» evfemistik ma‘nolari leksik bo‘lganligi uchun ham ular lingvistik lug‘atlarda qayd etilgan»[5].

Kelindan qaynona-qaynotaga nisbatan ham alohida hurmatda bo‘lish talab qilinadi. Yangi kelin qaynona-qaynotasi bilan yashasa, ularga ertalab nonushta, tushda ve kechqurun issiq ovqat tayyorlashi kerak bo‘ladi. Yaxshi xotin sifatida oilaning boshqa a’zolariga, xususan, qaynog‘asi, qaynisi, qaynagachisi va qaynisinglisining hurmatini ham joyiga qo‘yadi. O‘z ota-onasiga «oyi», ‘ada» deb xitob qilgani holda, qaynonaga «oyijon», qaynotaga nisbatan «adajon» kabi hurmat shaklidagi murojaatlarni qo‘llaydi.

Yaxshi xotinning yana bir fazilatlaridan biri uning mehmondo‘stligidir. Uyga kelgan mehmonlarni ochiq chehra bilan «xush kelibsiz»deb kutib oladi. Keyin ularni mehmonxonaga o‘tirishga taklif qiladi. Bu xona toza va saranjom bo‘lib, mehmonlar turli quruq va ho‘l mevalar, shirinliklar, pishiriqlar, non va choy qo‘yilgan xontaxta yoki stol atrofida o‘tiradilar. O‘zbek

[1] Мусаева Ф. Ўзбек тилида жинс тушунчасининг ифодаланиши: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 107.

[2] Nurmuxammedov Y. O‘zbek, turk va ispan milliy-madaniy dunyoqarashining frazeologik sath birliklarida reprezentlashuvi: Filol. fan dokt. (DSc) … diss. – Samarqand, 2026. – B. 133.

[3] Ўразалиева Г. Гендер ва аёллар ҳуқуқий маданияти. – Тошкент, 2009. – Б. 79.

[4] Ўразалиева Г. Гендер ва аёллар ҳуқуқий маданияти. – Тошкент, 2009. – Б. 82-83.

[5] Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент, 1975. – Б. 50, 79.

ayoli uchun yaxshi pazanda bo‘lish juda muhim. U pishirgan ovqatlar mazali bo‘lishi kerak. Binobarin, o‘zbek erkaklarining «yaxshi xotin» haqidagi stereotipik qarashini quyidagi misol orqali ko‘rish mumkin:

«Yo‘q, xotinim yaxshi! – deb o‘yladi O‘ktam mashinaga o‘tirgach. – Menga mehribon! Bolamni boqsa, mehmonimni kutsa, uyimni chinnidek toza qilib o‘tirsa. Yana ishlasa!..»[1].

Xullas, yaxshi xotin va yaxshi kelin rollari o‘zbek ayollari haqidagi stereotipining eng muhim jihatlaridir. O‘zbek ayoli o‘z oilasi oldidagi qator vazifalarini bajargandagina yaxshi xotin, yaxshi kelin hisoblanadi. Umuman, o‘zbek ayoli uyiga yaxshi qaraydi. O‘zbek ayolining oila a’zolariga, eriga va bolalariga nisbatan bo‘lgan cheksiz muhabbati boshqa madaniyatlarda kamdan-kam uchraydigan odatdir.

Rezyume. Ushbu maqolada gender stereotiplar gender rollarni o‘z ichiga oladi. Gender rollari vaziyat, joy, vaqt, ishtirokchilarning ijtimoiy mavqeyi, yoshi, muloqotdoshlarning munosabatlari, hayotiy tajriba va h.k.larga bog‘liq bo‘ladi.

Resume. This article examines gender stereotypes and their relationship with gender roles. Gender stereotypes include socially formed perceptions about gender roles. Gender roles are shaped and manifested depending on various factors such as situation, place, time, social status of participants, age, interpersonal relationships, and life experience.

Резюме. В данной статье рассматриваются гендерные стереотипы и их взаимосвязь с гендерными ролями. Гендерные стереотипы включают в себя определённые представления о гендерных ролях. Гендерные роли формируются и проявляются в зависимости от ситуации, места, времени, социального статуса участников, их возраста, характера взаимоотношений и жизненного опыта.

[1] Холмирзаев Ш. Сўнгги бекат. – Тошкент: Ёш гвардия, 1976. – Б. 97.